

2020- yilning yanvar-dekabr oylarida Toshkent viloyatida xizmatlar sohasining rivojlanishi



Dastlabki ma'lumotlar

103,4 %

O'sish sur'ati

**16 677,3
mlrd. so'm**

Xizmatlar hajmi

69,3 %

Kichik
tadbirkorlikning
ulushi

**Xizmatlar
sohasi**

61,6 %

Korxona va
tashkilotlar
ulushi

**5 619,2
ming so'm**

Aholi jon boshiga
ko'rsatilgan
xizmatlar

Iqtisodiyotning ushbu sektori turli xil faoliyat turlarini o'z ichiga olib, ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga yordam beradi

Toshkent viloyatining iqtisodiy holatini baholashda xizmatlar sohasining ko'lami, tarkibi va rivojlanish darajasi alohida o'rin tutadi.

Dastlabki ma'lumotlar



Xizmatlar sohasi bu — korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xil xizmatlar, ishlab chiqarishni o'z ichiga olgan umumlashtirilgan toifadir.

Ushbu sohani ko'pincha rivojlangan zamonaviy infratuzilma tufayli sanoatdan keyingi iqtisodiy tuzilma tarzida ko'riladi.

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2020- yilning yanvar-dekabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **16 677,3 mlrd. so'mga** yetdi. Uning nominal hajmi **2 108,9 mlrd. so'mga** oshdi. Taqqoslama ekvivalentda o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati **103,4 %**ni tashkil etdi.

Ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari

(2020- yil yanvar-dekabr oylarida)

**2 108,9
mlrd. so'mga**

**Hajmning
o'sishi**

**16 677,3
mlrd. so'm**

Xizmatlar hajmi

103,4 %

O'sish sur'ati




Dastlabki ma'lumotlar



Xizmatlar iste'molchilar (yuridik va jismoniy shaxslar) holatini o'zgartiradigan yoki tovarlar, xizmatlar va moliyaviy aktivlar bilan ayirboshlashiga ko'maklashadigan ishlab chiqarish faoliyatining natijasi hisoblanadi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmini taqqoslanishi, mlrd. so'm



2020- yilning yanvar oyiga nisbatan joriy yilning dekabr oyida (diskret oy) ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **405,3** mlrd. so'mga o'sdi va **1 618,1** mlrd. so'mga yetdi.


Taqqoslash uchun: 2019- yilning mos davrida hajmi **459,3** mlrd. so'mga o'sgan va **1 422,8** mlrd. so'mga teng bo'lgan.

Dastlabki ma'lumotlar



Xizmatlar sohasida iqtisodiy o'sishning asosiy omillari, aynan, yangi ilmiy bilimlar, aqliy kapital, axborot texnologiyalari, moliya sektori xizmatlari, konsalting va boshqalar shakllanishi bilan izohlanadi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmini taqqoslanishi, mlrd. so'm



■ 2019- y. ■ 2020- y.

2020- yilning IV diskret choragi yakunlariga ko'ra, ko'rsatilgan xizmatlar hajmi **4 746,8** mlrd. so'mni tashkil etib, 2019- yilning IV diskret choragiga nisbatan (**4 884,8** mlrd. so'm) hajmi **138,0** mlrd. so'mga kamaydi.

Taqqoslash uchun: 2019 va 2018- yillarning IV diskret oylari o'rtasidagi farqi **2 376,1** mlrd. so'mni tashkil etdi.

2020- yil III diskret choragining hajmiga nisbatan taqqoslaganda, 2020- yil IV diskret oyining hajmi **273,3** mlrd. so'mga o'sdi.

Taqqoslash uchun: 2019- yilning III diskret choragi hajmiga nisbatan, 2019- yilning IV diskret oyi hajmi **1 247,9** mlrd. so'mga o'sdi.




TOSHKENT VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

Dastlabki ma'lumotlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2020- yilning yanvar-dekabr oylarida)	Hajmi, mlrd. so'm	2019- yilga nisbatan o'sish sur'ati, % da
Xizmatlar - jami	16 677,3	103,4
shu jumladan:		
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	454,9	132,0
Moliyaviy xizmatlar	2 291,0	131,6
Transport xizmatlari	3 956,2	100,4
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	3 772,6	101,4
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	542,0	80,5
Savdo xizmatlari	5 811,1	103,0
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	513,5	91,0
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	582,7	103,9
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	272,7	82,7
Ijara xizmatlari	511,7	104,0
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	317,7	93,4
Shaxsiy xizmatlar	412,6	91,0
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	576,2	82,2
Boshqa xizmatlar	434,9	103,4

Dastlabki ma'lumotlar


Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning tarkibi



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida eng katta ulushni savdo xizmatlari egallaydi. 2020- yilning yanvar-dekabr oylarida ularning ulushi **34,8 %**ni tashkil etdi.

Dastlabki ma'lumotlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'atlari taqqoslanishi, %da



Yuqori o'sish moliyaviy xizmatlar (**31,6** %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (**32,0** %), shuningdek, ijara xizmatlari (**4,0** %), ta'lim sohasidagi xizmatlar (**3,9** %), boshqa xizmatlar (**3,4** %), savdo xizmatlari (**3,0** %) va transport xizmatlarida (**0,4** %) qayd etildi. Xizmatlar sohasiga taalluqli bo'lgan boshqa barcha faoliyat turlari bo'yicha 2019- yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'atlarining pasayishi kuzatilmoqda.

Dastlabki ma'lumotlar



Savdo bu – tovarlarning aylanishini, ularning ishlab chiqarish sohasidan iste'mol sohasiga o'tishini ta'minlaydigan iqtisodiyot sohasidir. Ma'lum bir davlat ichida savdo tovarlarini zarur iste'molchiga yetkazib berish vazifasini bajaradi. U ulgurji va chakana savdoga bo'linadi.

2020- yilning yanvar-dekabr oylarida, ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida savdo xizmatlarining ulushi **34,8** %ni tashkil etdi, bu esa **5 811,1** mlrd. so'mga to'g'ri keldi.

Taqqoslash uchun: 2019- yilda ularning hajmi **4 986,4** mlrd. so'mga yoki umumiy hajmining **34,2** %iga to'g'ri keldi.

Savdo xizmatlari

4 986,4

Xizmatlar hajmi,
mlrd. so'm

5 811,1

117,2

O'sish sur'ati, %da

103,0



2019- y.



2020- y. yanvar-dekabr


Dastlabki ma'lumotlar

2020- yilning o'tgan davrida chakana savdo xizmatlari ulushi, umumiy savdo xizmatlari hajmining qariyb to'rtidan uch qismini, aniqrog'i **69,7 %**ini tashkil etdi.

Savdo xizmatlari tarkibi

(2020- yilning yanvar-dekabr oylarida)

**Avtomobillar
va mototsikllar ulgurji
va chakana savdosi,
jumladan, ularni
ta'mirlash xizmatlarini
qo'shgan holda**



**Ulgurji savdo
xizmatlari
(avtomobillar
va mototsikllar
savdosidan
tashqari)**

8,2 %

69,7 %

22,1 %



**Avtomobillar
va mototsikllar
savdosidan
tashqari chakana
savdo bo'yicha
xizmatlar**



Taqqoslash uchun: 2019- yilda chakana savdo ulushi **68,7 %**ga yetdi.

Dastlabki ma'lumotlar



Moliyaviy xizmatlar hajmi moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlari uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.

Moliyaviy xizmatlar

(2020- yilning yanvar-dekabr oylarida)

Moliyaviy xizmatlar hajmi **2 291,0** mlrd. so'mni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2019- yilda ularning hajmi **1 730,3** mlrd. so'mga teng bo'lgan.



Ularining umumiy xizmatlar hajmidagi ulushi **13,7** %ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2019- yilda ularning ulushi **11,9** %ni tashkil etdi.



O'tgan yilning shu davriga nisbatan moliyaviy xizmatlar hajmini **560,7** mlrd. so'mga ko'payishi kuzatildi.

Moliyaviy xizmatlarning o'sishi **31,6** %ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2019- yilda ularning o'sish sur'ati **141,2** %ga yetgan.




Dastlabki ma'lumotlar

Moliyaviy xizmatlar umumiy hajmida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning ulushi **90,2 %**ni tashkil etdi.

2020- yilning o'tgan davrda sug'urta xizmatlarining ulushi **7,5 %** oralig'ida qayd etildi.

Moliyaviy xizmatlar tarkibi (2020- yilning yanvar-dekabr oylarida)



Taqqoslash uchun: 2019- yilda moliyaviy xizmatlarning umumiy hajmining **88,3 %**ini sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlar tashkil etdi.

Dastlabki ma'lumotlar




Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, AKT rivojlanishi mamlakatning raqobatbardoshlik darajasiga bevosita ta'sir qiladi, sizga katta hajmdagi ma'lumotlarni to'plash va umumlashtirishga imkon beradi, strategik darajada boshqaruv uchun katta imkoniyatlar ochadi.



Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (2020- yilning yanvar-dekabr oylarida)

2020- yilning yanvar-dekabr oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining hajmi **454,9** mlrd. so'm darajasida belgilandi.

2019- yilga nisbatan ushbu turdagi xizmatlarning o'sish sur'ati **132,0** %ga yetdi.




Taqqoslash uchun: 2019- yilda ushbu xizmat turi hajmi **339,3** mlrd. so'm yoki ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining **2,3** %iga teng bo'ldi. O'sish sur'ati **107,9** %ni tashkil etdi.

Dastlabki ma'lumotlar


Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmida eng katta ulushni telekommunikatsiya xizmatlari (simli va mobil aloqa xizmatlari, Internet tarmog'i, yo'ldoshli aloqa xizmatlari va boshqalar) egallab, **92,6 %**ni tashkil etdi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining tarkibi

2019- y.



Yanvar-dekabr
2020- y.



Taqqoslash uchun: 2019- yilda telekommunikatsiya xizmatlarining ulushi **89,6 %**ga yetdi.

Dastlabki ma'lumotlar



Amaliyot shuni ko'rsatadiki, bilimlar va xizmatlar iqtisodiyotini shakllantirishning eng muhim sharti kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlashning rivojlangan tizimi hisoblanadi. Amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonida mamlakatga turli sohalarda yuqori malakali mutaxassislar kerak. Yuqori malakali kadrlar innovatsion iqtisodiyotning harakatlantiruvchi kuchi bo'ladi.

Ta'lim sohasidagi xizmatlar

478,3
mlrd. so'm

Ko'rsatilgan bozor
xizmatlari hajmi

582,7
mlrd. so'm

2019- y.



2020- y.
yanvar-
dekabr

2020- yilning yanvar-dekabr oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi **582,7** mlrd. so'mga yetib, bozor xizmatlari umumiy hajmidagi ulushi **3,5** %ni tashkil etdi. 2019- yilga nisbatan o'sish sur'ati **103,9** %ni tashkil etdi.

139,1 %

2019- yilga nisbatan
o'sish sur'atlari, %da

103,9 %

Taqqoslash uchun: 2019- yilda xizmatlar hajmi **478,3** mlrd. so'mga teng bo'ldi. 2019- yilga nisbatan o'sish sur'ati **39,1** % darajasida qayd etildi.

Dastlabki ma'lumotlar



Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar – oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlatilgan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatdir.

Yashash bo'yicha xizmatlar hajmi, qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar



Xizmatlar hajmi,
mlrd. so'm

620,4

542,1

2019- y.

Yanvar-
dekabr 2020- y.



O'sish
sur'ati, %da


111,0

80,5

2019- yilga nisbatan yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmi **78,3** mlrd. so'mga kamaydi.

Dastlabki ma'lumotlar

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi



2020- yilning yanvar-dekabr oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning umumiy hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlarning ulushi **86,6 %** bilan ustunlik qildi.

Taqqoslash uchun: 2019- yilda ularning ulushi **77,3 %**ni tashkil etgan.

Dastlabki ma'lumotlar



Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi bu – sog'liqni saqlash muassasalarining tibbiy va sanitariya xizmatlari, shuningdek, tashkilotlar va tibbiyot korxonalari, stomatologiya, fizioterapevtik, gomeopatik poliklinikalar, kosmetologiya klinikalari, giyohvand moddalarni iste'mol qiluvchilarni davolash ambulatoriyalari, laboratoriya va sanitariya epidemiologiyalar tomonidan ko'rsatilgan bozor xizmatlarining qiymatidir.

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar

Yanvar-dekabr

2019- y.

2020- y.

299,0 mlrd.
so'm

Xizmatlar
hajmi

272,8 mlrd.
so'm

114,4 %

2019- yilga
nisbatan
o'sish
sur'ati

82,7 %

2,1 %

Xizmatlar-
ning jami
hajmidagi
ulushi


1,6 %

Dastlabki ma'lumotlar



Zamonaviy O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbollari, milliy va mahalliy manfaatlarni hisobga olgan holda, respublikaning har bir iqtisodiy tumani va viloyatlarining barcha resurslardan oqilona foydalanishiga bog'liqdir.

Hududlar kesimida ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibi, % da (2020- yilning yanvar-dekabr oylarida)



2020- yilning yanvar-dekabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmidadagi eng katta ulushi Qibray tumanida – **10,5** %ni tashkil etdi (2019- yilda – **10,8** % bo'lgan).

Xizmat ko'rsatish sohasining eng past ko'rsatkichlari Ohangaron tumanida – **1,3** % (2019- yilda – **1,3** %) qayd etildi.

Dastlabki ma'lumotlar

Hududlar bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2020- yilning yanvar-dekabr oylarida)	Hajmi, mlrd. so'm	O'sish sur'ati, % da	
		2020- y.	2019- y.
Toshkent viloyati *)	16 677,3	103,4	113,4
<i>shaharlar:</i>			
Nurafshon	875,1	105,3	124,8
Olmalik	1 126,1	101,6	105,8
Angren	1 029,1	103,0	105,6
Bekobod	770,6	104,1	103,1
Ohangaron	358,0	102,0	103,7
Chirchiq	1 394,5	102,9	102,9
Yangiyo'l	841,0	104,4	102,7
<i>tumanlar:</i>			
Oqqo'rg'on	429,6	101,9	101,9
Ohangaron	217,3	103,0	103,6
Bekobod	466,1	102,8	101,0
Bo'stonliq	923,3	104,7	106,4
Bo'ka	444,6	102,3	104,0
Quyi Chirchiq	310,2	104,0	103,4

*) hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hamlarni inobatga olgan holda

Dastlabki ma'lumotlar

Hududlar bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2020- yilning yanvar-dekabr oylarida)	Hajmi, mlrd. so'm	O'sish sur'ati, % da	
		2020- y.	2019- y.
Zangiota	1 568,6	108,7	108,1
Yuqori Chirchiq	555,0	104,5	105,7
Qibray	1 757,5	101,3	105,1
Parkent	634,8	104,3	105,9
Piskent	243,4	102,4	102,9
O'rta Chirchiq	606,9	101,4	104,9
Chinoz	523,0	101,1	105,4
Yangiyo'l	745,4	101,3	102,0
Toshkent	856,9	102,7	105,6

Ko'rilayotgan davrda, resurslardan samarali foydalanish natijasida hududlar bo'yicha Qibray tumanida ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmini o'sishiga ta'sir ko'rsatdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan ushbu hududda ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 191,0 mlrd. so'mga oshdi va 1 757,5 mlrd. so'mga yetdi.

Dastlabki ma'lumotlar



Xizmatlar sohasining rivojlanish darajasi aholining hududiy va ijtimoiy harakatchanligini, yangi xo'jalik hududlarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish samaradorligini va moddiy mahsulotlar iste'molini oshirishni ta'minlaydi.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining har oyda o'sishi kuzatilmoqda.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari

Xizmatlar hajmi

Hajmning o'sishi

5 619,2
ming so'm

630,4 ming
so'm

2020- yilning yanvar-dekabr oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **5 619,2** ming so'mga yetdi.

2019- yilga nisbatan o'sish sur'ati **101,7** %ni tashkil etdi.

101,7 %

Taqqoslash uchun: 2019- yilda aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi **4 988,8** ming so'mni tashkil etdi.

O'sish sur'ati



22


Toshkent viloyatida
xizmatlar sohasining rivojlanishi

2020- yil yanvar-dekabr oylarida

Dastlabki ma'lumotlar

Ushbu xizmatlar hajmi ko'rsatkichi hududlar o'rtasida Nurafshon shahrida **17 859,7** ming so'mdan Ohangaron tumanida **2 256,6** ming so'mgacha oralig'ida kuzatildi.

Hududlar kesimida aholi jon boshiga xizmatlar hajmining asosiy ko'rsatkichlari, ming so'm (2020-yilning yanvar-dekabr oylarida)



Ohangaron tumanida aholi jon boshiga xizmatlar hajmi ko'rsatkichi nisbatan pastligi bu hududda aholi sonining yuqori ko'rsatkichlariga bog'liqligidir.

Dastlabki ma'lumotlar



Xizmatlar sohasi xalqaro korporatsiyalar, banklar, aviakompaniyalar, kompyuter markazlari, telekommunikatsiyalar, sug'urta, yuridik va konsalting firmalari, davlat va nodavlat tashkilotlari, shuningdek, notijorat tashkilotlarni qamrab oladi.

**2021- yilning 1- yanvar holatiga, xizmatlar sohasida
faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar
to'g'risida ma'lumot
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**

Xizmatlar
sohasida faoliyat
ko'rsatayotgan
korxona va
tashkilotlar soni

**28 437
birlik**

2019- yilning
mos davriga
nisbatan
ularning
sonini o'sishi

**4 634
birlikga**

2019- yilning
mos davriga
nisbatan
o'sish sur'atlari

119,5 %

Ularning
umumiy
sonidagi
ulushi


61,6 %



Dastlabki ma'lumotlar

2020- yilning 1- yanvar holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi **61,6 %**, sanoat – **19,0 %**, qurilish - **7,7 %**ga yetdi. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi sohasi **11,7 %**ga to'g'ri keladi.

2021- yilning 1- yanvar holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning tarkibi, %da
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Taqqoslash uchun: 2020- yilning 1- yanvar holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning ulushi **61,8 %**ni, sanoat **19,6 %**ni, qurilish **7,7 %**ni, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi **10,9 %**ni tashkil etgan.

Dastlabki ma'lumotlar

2020- yilning 1- dekabr holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibi, %da (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar tarkibida, savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxona va tashkilotlar yuqori ulushni (**44,3** %) egallaydi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmat ko'rsatuvchi korxona va tashkilotlarning ulushi **12,0** %ni tashkil etdi.

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar tarkibida tashish va saqlash faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxona va tashkilotlarning ulushi **5,6** %ga yetdi.

Axborot va aloqa faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxona va tashkilotlarning jami xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar tarkibidagi ulushi **2,1** %ga teng bo'ldi.

Savdo – 44,3

Boshqa turdagi
xizmatlar– 33,3

Yashash va ovqatlanish
bo'yicha – 12,0

Tashish va saqlash – 5,6

Sog'liqni saqlash – 2,7

Axborot va aloqa – 2,1


Sog'liqni saqlash, shuningdek, ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning ulushi **2,7** %ni tashkil etdi.

Dastlabki ma'lumotlar




Kichik tadbirkorlik subyektlari milliy iqtisodiyotning ajralmas va muhim bo'lagiga aylandi, ko'plab iqtisodiy va ijtimoiy muammolarni hal qilish, xizmatlarni rivojlantirish, insonlarning farovon hayotini ta'minlash uchun yetakchi kuchga aylandi.

Xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlikning ulushi, % da



2020- yilning yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan bozor xizmatlarining ulushi **69,3 %**ni tashkil etdi.


2021- yilning 1- yanvar holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiy sonida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi, %da (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



2021- yilning 1- yanvar holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar umumiy sonida kichik tadbirkorlik subyektlarining hisssasi **87,6 %**ga to'g'ri keldi.

Dastlabki ma'lumotlar

2021- yilning 1- yanvar holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari to'g'risida ma'lumot *(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*



Ko'plab xalqaro ekspertlarning fikriga ko'ra, xizmatlar sohasining jadal rivojlanishi mamlakat iqtisodiyotini zamonaviy tuzilmaviy moslashtirishni muvaffaqiyatli yakunlash uchun hal qiluvchi shartdir.

Xizmatlar sohasining tarmoqlar tarkibi va texnologiyalari tobora murakkablashib borishi, mahsulot sifati va rang-barangligini oshirish, shuningdek, yuqori texnologiyali xizmatlar tarmoqlarining jadal rivojlanishi korxona va tashkilotlar, uy xo'jaliklarining samaradorligi va raqobatbardoshligini yanada oshirishga yordam beradi.

Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi.
Tel.: 71-202-86-72